

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Gematologik va onkogematologik bemorlarda trombofiliya uchrashish chastotasini o‘rganish, trombotik asoratlarning oldini olish algoritmini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: O‘zbekistonda onkogematologik kasalliklarga chalingan bolalarda klinik ma’lumotlar, umumiy qon tahlillari, gemostaz tahlili va genetik tadqiqotlar, bemorning fenotipi hamda genetik metodlar asosida quyidagi genlarning polimorfizm spektri o‘rganiladi: Faqtor V (F5) – polimorfizm G1691A, Faqtor II (protrombin) – polimorfizm G20210A, Protein C va Protein S mutatsiyalari, antitrombin III yetishmovchiligi, Fibrinogen (FGB), MTHFR (rs1801133), MTRR (rs1801394), MTR (rs1805087) va PAI-1 (rs1799768), shuningdek, kam uchraydigan mutatsiyalar. Ushbu tadqiqotlar mintaqamizga xos uchrashish chastotasini aniqlash imkonini beradi. Trombofiliya bilan bog‘liq gemostaz genlari polimorfizmlarining gomo- va geterozigot tashuvchilarini aniqlash bo‘yicha yangi strategiya ishlab chiqiladi va joriy etiladi. Bu esa har bir bemor uchun individual davolash strategiyasini o‘z vaqtida ishlab chiqish imkonini beradi. Kam uchraydigan mutatsiyalar bilan davolash natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash esa toksiklikni kamaytirish va yashovchanlikni oshirishga qaratilgan davolash algoritmini ishlab chiqishda yordam beradi. Yig‘ilgan ma’lumotlar asosida erta diagnostika, Faqtor V (F5) – polimorfizm G1691A, Faqtor II (immunologik) – polimorfizm G20210A, Protein C va Protein S mutatsiyalari, immunologik III yetishmovchiligi, Fibrinogen (FGB), MTHFR (rs1801133), MTRR (rs1801394), MTR (rs1805087) va PAI-1 (rs1799768) genlarining gomo- va geterozigot tashuvchilarini aniqlash uchun skrining paneli ishlab chiqiladi va O‘zbekiston Respublikasi uchun maxsus ma’lumotlar bazasi yaratiladi. Aniqlangan mutatsiyalar asosida xavf guruhlarini to‘g‘ri stratifikatsiya qilish esa onkogematologik kasalliklarga chalingan bolalarda o‘lim holatlarini sezilarli darajada kamaytirish va ularning yashovchanligini oshirish imkonini beradi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqotlar natijalari Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Sog‘liqni saqlash vazirligi xulosasi olinadi. Natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalar asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalari Sog‘liqni saqlash vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi